



Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti



TASHENEV
UNIVERSITY



“Alisher Navoiy va XXI asr”

10-ULUSLARARO KONFERANSI

Toshkent-Shimkent, 2025-yil 6-fevral

“Әлішер Науаи және XXI ғасыр”


10- ХАЛЫҚАРАЛЫҚ КОНФЕРЕНЦИЯ

Ташкент-Шымкент, 6 ақпан 2025 жыл

“Alisher Navo'i and the 21st century”

10th INTERNATIONAL CONFERENCE

Tashkent-Shymkent, February 6, 2025



**Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
Qozog'iston Respublikasi Jumabek
Tashenev nomli universitet**

«ALISHER NAVOIY VA XXI ASR»

**mavzusidagi 10-uluslararo konferansi
materiallari**

2025-yil 6-fevral

Toshkent – Chimkent – 2025

UO'K: 821.161.1=512.133

KBK: 83.3 (50')

A 51

Mas'ul muharrirlar:

Shuhrat SIROJIDDINOV,

filologiya fanlari doktori, akademik
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti rektori

Kanat BAYBOLOV,

Jumabek Axmetuli Tashenev nomli universitet rektori,
texnika fanlari doktori, professor

Tahrir hay'ati:

Boqijon To'xliyev (O'zbekiston), Nurboy Jabborov (O'zbekiston), Parida Bayneeva (Qozog'iston), Kemal Yavuz Ataman (Turkiya), Yashar Qosim (Ozarbayjon), Islam Jemeney (Qozog'iston), Farhod Rahimiy (Eron), Sholpan Arzimbetova (Qozog'iston), Karomat Mullaxo'jayeva (O'zbekiston), Janna Botabaeva (Qozog'iston), Baxtiyor Fayzullayev (Tojikiston), Dilnavoz Yusupova (O'zbekiston), Nozliya Normurodova (O'zbekiston), Shahlo Naraliyeva (Qozog'iston), Ilyos Ismoilov (O'zbekiston), Azizullah Aral (Afg'oniston), Orzigul Hamroyeva (O'zbekiston), Ozoda Tojiboyeva (O'zbekiston)

Ushbu to'plamda "Alisher Navoiy va XXI asr" mavzusidagi 10-uluslararo konferansi materiallari jamlangan. To'plamda Alisher Navoiy adabiy-ilmiy merosining mumtoz adabiyotimizdagi o'rni va bugungi kun uchun ahamiyati, shuningdek, shoir ijodiga bog'liq holda matnshunoslik va tilshunoslik muammolariga doir ilmiy maqolalar o'rin olgan. Navoiyshunoslikning bugungi holati va istiqboli borasida muayyan tasavvur berishi uning ahamiyatini belgilaydigan omillardan biridir. Kitob filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistrantlar va bakalavr talabalari hamda keng o'quvchilar ommasiga mo'ljallangan.

Mualliflar qarashi va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

**Әлішер Науаи атындағы Ташкент
мемлекеттік өзбек тілі мен әдебиеті университеті**

**Қазақстан Республикасы Жұмабек
Тәшенев атындағы университет**

«ӘЛІШЕР НАУАИ ЖӘНЕ XXI ҒАСЫР»

**тақырыбындағы 10-халықаралық
конференция материалдары**

2025 жыл 6 ақпан

Ташкент – Шымкент – 2025

muxammasning ikkinchi bandida Alisher Navoiy mustazodidagi *“Ham turrasining dudu vara’ beliga zunnor, Men kofiri ishq”* misrasi o’rnida bandning ikkinchi misrasi *“Tushti hamaning jonu dili ichra ba yakbor, Man kofari ishq”* tarzida noto’g’ri ko’chirilgan. Bu holni, ehtimol, she’rni ko’chirgan kotib yoki she’r matnini bosmaga tayyorlash chog’idagi e’tiborsizlik bilan izohlash mumkindir. Bu yerda *to’liq* va *yarim* misra o’rtasida ma’no jihatidan ham nomuvofiqlik kuzatiladi. Shuningdek, uchinchi banddagi *yarim* misralarning qofiyalanishida ham ayrim juz’iy kamchiliklar ko’zga tashlanadi. Ya’ni bu yerda *“netarkim”, “olarkim”, “etarkim”, “yonarkim”* so’zlarida qofiyaning asosi – raviy bir xil asosga ega emas.

Xulosa qilib aytganda, Ahmad Tabibiyning ijodkor sifatida shakllanishida buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning ijodiy merosi kuchli ta’sir etgan. Tabibiyning aksar lirik asarlari hazrat Navoiy g’azallariga o’xshatmalar, muxammaslar, musaddaslar tarzida bitilgan. Bu hol shoirning buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ijodiga naqadar ixlosmand bo’lganini ko’rsatadi.

Ahmad Tabibiy adabiy merosi endi keng ko’lamda tadqiq etila boshladi. Shoir ijodiy merosi salmoqli bo’lib, ularni adabiyotshunoslik mezonlari asosida tadqiq etish yangicha ilmiy xulosalarga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. 10 жилдлик. 10-жилд. – Тошкент, 2011.
2. Amonov Sh. Ahmad Tabibiy turkiy devonlari qo’lyozmalarining qiyosiy-matniy tadqiqi. – Toshkent: Bookmany print, 2023.
3. Amonov, S. N. (2024). Navoi And Tabiby: Literary Following. SPAST Reports, 1(1).
4. Гадоий, Девон (Nashrga tayyorlovchi – Эркин Аҳмадхўжаев). – Тошкент. Адабиёт ва санъат, 1973.
5. Isfandiyorpur Hushmand. Arusoni suhan. –Tehron; Firdavs, 1388 h.q.
6. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. –Тошкент: O’zbekiston, 2014.
7. Орзибеков Р. Лирикада кичик жанрлар. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1976.
8. Раҳмонова Ш. М. XX аср иккинчи ярми ўзбек шеърлятида мустазод жанри //Ўзбекистонда хорижий тиллар. – 2020. – № 6 (35).
9. Хоразмий Ҳофиз (Nashrga tayyorlovchilar: Х.Сулаймонов, Ф.Сулаймонова). – Т. ЎзКПМК, 1981.
10. Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунуну-л-балоға (Масъул муҳаррир Б.Насанов). – Тошкент: Хазиана, 1996.
11. Юсупова Д. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи (Алишер Навоий даври). – Т.: Академнашр, 2013.
12. Ҳожиаҳмедов А. Ўзбек арузи луғати. – Тошкент: Шарқ, 1998.

“FARHOD VA SHIRIN” DOSTONIDAGI NA’T BOBLARNING MANBALARI VA BADIYYATI

Amonova Zilola Qodirovna,

BuxDU, o’zbek tili va adabiyoti kafedراس professori, f.f.d.

zilolajonamovna@gmail.com.

Safarova Shahlola Amin qizi

TDO’AU tayanch doktoranti

c_mcloud@mail.ru

10.52773/tsuull.conf.navoiy.2025/VMVO4590

Annotatsiya. Maqolada Alisher Navoiy ijodida alohida o’rin egallagan *“Xamsa”* dostoni tarkibidagi *“Farhod va Shirin”* dostonining na’t bobi g’oyayaviy-badiiy tahlilga tortilgan. Tahlil davomida misralarda keltirilgan fikrlarning manbalari, ya’ni Qur’oni Karim, Hadisi Sharif,

tasavvuf ta'limoti bilan bog'liq jihatlariga alohida e'tibor qaratilgan. Doston tarkibidagi she'riy satrlar g'oyaviy-badiiy tahlil qilinib, manbalari aniqlangan. Maqolada shoirning badiiy mahoratiga ham baho berilgan.

Kalit so'zlar: na't, me'roj tuni, payg'ambar Muhammad (s.a.v), Arshi a'lo, Makka, Madina, qoba qavsayn, "Farhod va Shirin".

THE SOURCES AND ARTISTICITY OF THE CHAPTERS IN THE EPIC OF "FARHAD AND SHIRIN"

Abstract. This article provides an ideological and artistic analysis of the first chapter of the epic *Farhad and Shirin* from Alisher Navoi's *Khamsa*, a work that holds a significant place in his literary oeuvre. The analysis focuses on the sources of the themes presented in the verses, particularly the influence of the Holy Qur'an, Hadith Sharif, and Sufi teachings. The poetic lines of the epic are examined in prose form, with a detailed exploration of their literary and philosophical underpinnings. Additionally, the article evaluates Navoi's artistic mastery, highlighting his skillful integration of spiritual and literary elements within the epic.

Keywords: na't, night of Miraj, Prophet Muhammad (pbuh), Arshi a'la, Makkah, Madinah, Qoba Qawsain, "Farhad and Shirin".

"Hayrat ul-abror" dostonida beshta na't bobi keltirilgan bo'lsa, shoirning "Farhod va Shirin" dostonida esa na'tlar sonini ikkitadir. Navoiy barcha asarlarida "katta mehnat va mahorat bilan kichik bir sarlavhani o'sha bob mazmuniga ham, butun asardan ko'zlangan maqsad va mavzuga ham muvofiqlashtirishga intiladi" hamda "sarlavhaga axborot berishdan tashqari, mazmunni yangicha obrazli ifodalash, estetik zavq berish, badiiy mahoratni ko'rsatish singari funksiyalarni yuklaydi" [Исmoilов И, 2019: 44]. Jumladan, birinchi na't quyidagi nasriy sarlavha bilan boshlangan: "Ul quyosh ruxsori vasfidakim, tun kibi gisu quyoshig'a soya soldi va **Vashshams** bila **Vallayl** surasini aning yuz quyoshi bila zulfi tuniga o'xshatilg'onidin har biri bir biyik poya oldi, agarchi ul quyoshqa soya yo'q erdi va ul kechaga manzil quyosh ustida-o'q erdi. «**Va sallallohu alo shamsi jamolihi va zilli kamolihi**» [Alisher Navoiy, 1991: 13].

Alisher Navoiy istiora orqali "Ul quyosh" hazrati Muhammad (s.a.v.)ga ishora qiladi. Payg'ambar jamoli ta'rifida bir talay tashbehlardan (**Vashshams** bila **Vallayl** surasini aning yuz quyoshi bila zulfi) foydalanadi. Ya'ni tun kabi sochi quyoshdek yuziga soya soldi, «**Vashshams**» bila «**Vallayl**» suralari uning nurli yuzi va tunde k qora zulfiga o'xshatilganligi sababli har biri buyuk poya oldi (martabaga ega bo'ldi).

Shoir fikrlarini tashbeh bilan birgalikda iqtibos bilan asoslashga harakat qilgan. "A.Qayumovning fikricha, Navoiy juda muhim deb hisoblagan boblarining sarlavhalaridagina arabcha ko'chirmalar keltiradi" [A.Қаюмов, 2009: 56].

Shoir rasulullohning go'zal chehrasini quyoshga, qop-qora sochlarini tunnig qoraligiga bejizga tashbeh etmagan. Abu Hurayra aytadi: "Rasulullohdan ko'rkam, chiroylik kishini men hech ko'rmadim, yuzlari to'lin oydek yo quyoshdek" [Соғуний Алихонтўра, 1997: 600]. Ummu Honi' roziyallohu anho dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning sochlari ikki quloqlarining yarmiga tushar, to'rtga bo'linib o'rilib qo'yilganday ko'rinar edi. Ba'zi rivoyatda deyilganki, har bir muborak quloqlari ikki o'rilgan soch o'rtasida xuddi qorong'u kechadagi yorug' yulduz kabi ko'rinar edi [Muhammad at-Termiziy, 2007: 6]. Garchi uning quyoshdek yuziga soya soladigan hech narsa bo'lmasa-da, kechaga manzil quyosh ustidagi o'q edi.

Na'tning birinchi bayti borliqning yaratilishi va rasulolloh nuri bilan bog'liq ifodalarning badiiy talqiniga bag'ishlangan:

Muhammad «kofu», «nun»g'a qurratul-ayn

Tufayli kavn o'lub, yo'q-yo'qki, kavnayn.

Shoir butun dunyoni yaratishdan asosiy maqsad yaratilarning eng oliysi va mukammali bo'lmish Muhammad (s.a.v) ekanligini qalamga oladi. Ya'ni Muhammad (s.a.v.) **“kof” va “nun”** “Kun” (Yaral (Yosin 82)) ga “qurratul-ayn” (ko'z qorachig'i)dek edi. Mazkur baytning manbasi sifatida Yosin surasi bilan birgalikda “An'om” surasining 73-oyatini qayd etish mumkin: “U osmonlaru yerni haq ila yaratgan zotdir. **«Bo'l», degan kuni bo'ladir.** Uning gapi haqdir. Dud chalinadigan kuni mulk Unikidir. U g'aybni ham, shohidni ham biluvchi zotdir. Va U hakiym va xabardor Zotdir” [Abdulaziz Mansur, 2001: 85].

Demak, Navoiy “Kun” so'zining asosi bo'lgan “Kofu”, “nun”– harflariga hazrati Payg'ambarimiz (s.a.v) ning qurratul-ayn – (arabcha: ko'z ravshanlig'i; ko'z qorachig'i. maj.farzand) ekanliklarini ta'kidlaydi. Zero, ayni mulohazalar bilan bog'liq qudsiy hadis ham mavjud. Shuning uchun Alisher Navoiy ham “Muhammad «kofu», «nun»g'a qurratul-ayn”, deydi. U tufayli kavn (borliq), nafaqat borliq, balki kavnayn – ikki dunyo (u dunyo va bu dunyo) yaratilganligiga urg'u beradi. Shoir mulohazalarini ta'kidlash maqsadida ruju' (kavn o'lub, yo'q-yo'qki, kavnayn) dan o'rinli foydalanadi.

Alisher Navoiy keyingi baytlarda payg'ambarimizning ulug' maqomi, qolaversa, nabiyalar orasidagi yuksak mavqeyini qalamga oladi:

Nubuvvat kishvarining taxtgiri,

Risalat taxtining sohib sariri.

Saririg'a to'quz aflok o'lub farsh,

To'quz aflokni qo'yg'il, degil Arsh.

Ulug' shoir payg'ambarlar orasidagi rasulollohning mavqeyi haqida gapirar ekan, eng go'zal tashbeh, istiora, ruju' kabi badiiy tasvir vositalarini mahorat bilan ishga soladi. Ya'ni nubuvvat (payg'ambarlik, elchilik) kishvar (mamlakat)ining taxtgiri. Risalat (payg'ambarlik, elchilik) taxtining sohib sariri (taxt sohibi). Sariri (taxti)ga to'qqiz aflok (falak, osmon) farsh (to'shama) bo'lsin. To'qqiz aflok dema, balki Arsh (osmonning eng yuqorisi) to'shalsin. Bu bayt orqali shoir Muhammad (s.a.v)ning Alloh oldidagi martabalari naqadar yuqori ekanligiga ham diqqat qaratadi. Zero, “Axloq – fazilat osmonida rasulloh go'yoki quyosh bo'lsalar, qolgan payg'ambarlar quyosh atrofidagi yulduzlar kabi” [Соғуний Алихонтўра, 21997: 599]. Olamlarning rahmati, oxir zamon Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v)ning insonlar orasidan chiqishi butun insoniyat uchun katta faxrdir. Dunyo tarixida ul zotchalik mehribon, xalqparvar, ummatlarining saodatga yetishishiga tashna payg'ambar bo'lmagan. “Zero, Rasulullohni qabul etmasdan musulmon bo'lmoq imkonsizdir” [Shayx Mahmud As'ad Jo'shon, 2007: 4].

Na't davomida yaratilmishlarning sababchisi, ikki olam sarvari, yaratilarning sardori Nabiy alayhissalomning Alloh tomonidan yuborilgan ulug' payg'ambar ekanliklarini asoslash va ilohiy kitob Qur'oni Karimning vahiy sifatida nozil bo'lganligini dalillash maqsadida shoir Muhammad (s.a.v) qo'llariga qalam tutib, yozmaganliklariga urg'u beradi:

Necha choki giribon qildi xoma,

To'kub ashkini afg'on qildi xoma.

Ochib og'zin qilay deb dastbo'si,

Muyassar bo'lmayin bu orzusi.

Ayni mulohazalarni asoslash maqsadida, tashxisdan o'rinli foydalanilgan. Ya'ni ul Zot o'qish va yozish bilan mashg'ul bo'lmaganliklari, qo'llariga qalam ushlab, bir harf ham yozmaganliklari sababli, qalam ko'ksini chok qilib, ko'z yoshlarini afg'on qilganligi, payg'ambarimiz qo'llarini o'pish uchun og'zini qancha ochmasin, bari befoyda bo'lib, bu orzusi ham amalga oshmaganligini juda go'zal tasvirlaydi.

Birinchi na'tning so'nggi baytida bevosita ikkinchi na'tga o'tish, uning mavzu mohiyatiga aniqlik kiritish maqsadida rasulollohning me'roji bilan bog'liq baytni keltiradi:

Bu shori' birla torqon yo'l yaroqi,
Yetib manzilg'a andoqkim Buroqi.

Bu shori' (to'g'ri, katta yo'l) va torqon yo'lning yaroqi (quroli)dir. O'z manziliga Buroq bilan yetdi. Ya'ni payg'ambarimiz me'rojga Jabroil (a.v) keltirgan Buroq laqabli ot yordamida ko'tarilganlar. Navoiy talmeh vositasida me'rojga ishora qilmoqda. Mazkur bayt ikkinchi na'tga o'tishda ko'prik vazifasini o'taydi.

Ikkinchi na't quyidagi nasriy sarlavha bilan boshlanadi: "Ul shahsuvor vasfidakim, qarong'u tunda tiyra xokdondin Buroqi barqvash uzra chiqqoni «Minaz-zulumoti ilan-nur» din muxbir erdi, balki ul rokibning pok zoti ostidag'i pok oti, bila «nurin alo nur» din xabar berdi va bu nurlar malakut shabistonini munavvar va malak bo'stonini rashki sipehri azhar qildi" [Alisher Navoiy, 1991: 17].

Sarlavhada Rasulolloh (s.a.v) vasflari va ul zotning zulmatda olamni yoritgan, saodat davrini boshlab bergan «nurin alo nur» (**«nur ustiga nur»**) ekanliklari beriladi. Shoir istiora orqali (shahsuvor) rasulollohni qorong'i tunda qora yerdan chaqmoqdek (tashbeh) oti ustiga minib, "Minaz-zulumoti ilan-nur" (**«Qorong'ulikdan yorug'likka»**) chiqqanining xabarini iqtibos orqali aniq dalillaydi. Nasriy sarlavhadayoq shoirning badiiy mahorati ko'zga tashlanadi. Ayniqsa, "Hadid" surasi 9-oyati ijodkor mulohazalarini yorqin ifodalashga xizmat qilgan: "U zot O'z bandasiga sizlarni zulmatlardan nurga chiqarish uchun ravshan oyatlarni tushiradir. Va, albatta, Alloh sizlarga shafqatli va rahmlidir" [Abdulaziz Mansur, 2001: 379].

Navoiy nasriy sarlavhaning birinchi qismida rasulollohni "shahsuvor" istiorasi orqali ifodalagan bo'lsa, ikkinchi qismda "rokib" sifatida e'tirof etib, ayni o'rinda payg'ambarning pok zotiga va u kishi mingan pok otga ishora qilib, bu holatni "Nur" surasining 35-oyati orqali asoslaydi: **"(Bu) nur ustiga nurdur**. Alloh xohlagan odamni O'z nuriga hidoyat qilur" [Abdulaziz Mansur, 2001: 233].

Sarlavhaning ikkinchi qismida adib tasdir (pok so'zining takrori) orqali rasulollohning zotini va mingan otining pokligi bilan bog'liq mulohazalarni kuchaytiradi. Shuningdek, "ruju' vositasi bilan ul mohir chavandozning pok zoti va ostidagi pok oti "Zulmatdan nur sari "dan emas, balki "nuran to nur", ya'ni "nur ustiga nur "dan xabar bergan. Chunonchi, shahsuvor - Buroq - rokib - ot so'zlari minmoq ma'nosida birlashib, bir tanosub qatorini tashkil qiladi. Biroq bu sarlavhadagi yagona tanosublar qatori emas. Me'roj tuni tasviridagi qorong'i tun, tiyra xokdon iboralari ham o'zaro ma'nodosh. Bu so'zlarning har ikkisida ham qorong'ilik ma'nosi bor [Abdulhamid Qurbobov, 2016: 122].

Payg'ambarimizning me'rojga ko'tarilishlari haqida Qur'oni Karim "Isro" surasining 1-oyatida shunday deyiladi: "O'z bandasini kechasi Masjid-ul Haromdan atrofni barakali qilganimiz Masjidul Aqsoga mo'jizalarimizni ko'rsatish uchun sayr

qildirgan Zot pokdir. Albatta, U o'ta eshituvchidir, ko'rib turuvchidir". [Abdulaziz Mansur, 2001: 179].

Oyati karimada Alloh taolo O'zini O'zi poklab yod qilmoqda va bandasi Muhammad sollallohu alayhi vasallamni isro qildirgani, ya'ni kechaning bir qismida sayr qildirgani haqida xabar bermoqda. Oyatdagi «O'z bandasi»dan murod, Muhammad sollallohu alayhi vasallamdirlar. Muhammad sollallohu alayhi vasallam doimo Allohning bandasi ekanliklari bilan faxrlanib yurar edilar. Ushbu oyatda u zotning ismlari aytilmay, «O'z bandasi» iborasining ishlatilishi ham Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallam uchun faxr hamda eng og'ir paytda u kishi uchun tasallidir.

Navoiy me'roj tuni tasvirida o'ziga xos badiiy tasvir vositalaridan foydalangan:

Ul aqshomkim, yuziga lu'batl Chin,
Eshib marg'ula yoydi zulfi mushkin.
Nasim ul mushk isin butrotti har yon,
Havo ra'nolarig'a sotti har yon.
Yoshundi mushk ichinda Chin g'azoli,
Dema Chinkim, falak zarrin g'azoli.

Ul oqshom (me'roj tuni) lu'batl Chin (Chin go'zali) mushk iforli sochini yoydi. Nasim (shamol) esa uning isini har yonga sochdi. Xush iforlar ichida Chin kiyigi yashirindi. U Chinning emas, balki falakning zarli kiyigidir. Baytda istiora va tashbehning go'zal ifodasini ko'rish mumkin. Shuningdek, me'roj tunini Chin sanamiga o'xshatish, dostonning asosiy qahramoni – Farhodning Chin mulki xoqonining o'g'li ekanligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bu orqali aytish mumkinki, shoir me'roj na'tning har baytida dostonning umumiy mazmuniga mos tushadigan tasvirlarni, tashbehlarni qo'llaydi. Bu esa dostonning syujeti bilan bevosita bog'liq.

Hazrat Navoiy ushbu tun tasvirini quyidagicha ifodalagan:

Qo'pub ot uzra andoq sekridi bot
Ki, hayron qoldilar ham rayku, ham ot.
Ham avval hamla rahshi barqho'din,
O'tub tufroqu elu o'tu sudin,

Ot qo'pub (qo'zg'alib) yana qayta sakradi. Rahshi barqho' (yashinga o'xshash ot) tuproq, o't, suvlardan o'tib chopdi. Payg'ambarimiz o'sha nurli tunda Allohning jamoliga yetishish uchun shu darajada shoshildilarki, bu tezlik aqlni shoshiradi. "Me'roj mo'jizasi bor ekan, inson uchish orqali ruhan Alloh vasliga yetishi mumkin, degan tasavvufona orzu ham bo'ladi" [Sultonmurod Olim, 1996: 108].

Berib chun Arshqa zoti tafoxur,
Bo'lub Arsh afsar, ul afsar uza dur.

Shoir mazkur baytning birinchi misrasida tashxis vositasida juda go'zal ifoda yaratadi. Ya'ni Muhammad (s.a.v)ning Arsh (osmonning eng yuqorisi)ga ko'tarilishlari unga tafoxur (faxrlanish) hissini berganligi, u zotning Alloh dargohidagi mavqelarini naqadar yuksak ekanligini ko'rsatadi. Navoiyning ushbu fikrini Qur'oni Karim "Sharh" surasining 4-oyati ham dalillaydi: "Biz sizning zikringizni (martabangizni) ham baland qilib qo'ydik. [Abdulaziz Mansur, 2001: 455]. "Bilamizki, Arsh eng yuksak makon. Afsar (toj) Arshning ustida turadi. Ijodkor hazrati rasulollohni ana shu Arsh afsarining duriga mengzaydi. Shuningdek, Me'roj tunida Payg'ambarimiz Arshga yetib borguncha, yetti qat osmonda bir nechta payg'ambarlar bilan ko'rishadilar. Ya'ni payg'ambarlar bir xalqa bo'lib, o'tirganlari misli bir uzuk bo'lsa, Muhammad (s.a.v) uzukning ko'zi

edilar. Ushbu tun tasviri bir qancha nasriy va nazmiy asarlarda o'ziga xos tarzda aks ettirilgan. Jumladan, Alisher Navoiyning g'azallarida, qasidalarida, doston va nasriy asarlarida ham ko'zga tashlanadi.

Navoiy me'roj tasvirini davom ettirar ekan, payg'ambarning har bir harakatlari Allohning izniz bo'lmaganligiga urg'u beradi:

Sururgach **«Motag'o»** tufrog'in ul bog',
Chekildi nargisiga kuhli **«mo zog'»**.

Baytda ifoda ta'sirchanligiga iqtibos orqali erishilgan. Ya'ni **«Motag'o»** ("Motag'o" – «Bo'yin toblamadi» yoki "o'zini siljitmadi") bu "Qur'on"dagi Payg'ambarni madh etuvchi oyatga ishora sifatida keltirilgan. Me'rojda vahdat pardasi jilva qilib, visol nasimi orqali vahdat etagi ochildi. "Tuprog'i u bog'dan supurilar ekan, uning ko'ziga **«Mozog'»** («Haq farmonidan hech chetga chiqmadi») surmasi chekildi. Mazkur baytning manbasi sifatida "Najm" surasining 17-oyatini keltirish mumkin: "(Payg'ambarning) ko'zi (chetga) og'gani ham yo'q, o'z haddidan oshgani ham yo'q" [Abdulaziz Mansur, 2001: 364]. Ushbu oyat tafsirlarda keng sharhlangan. Jumladan, quyidagi tafsirni keltirish mumkin: "Muhammad alayhissalomning nigohlari burilib, me'rojda ortiqcha narsalarni ko'rganlari yo'q. Shuningdek, haddilaridan oshib, amr bo'lmagan narsalarni ham ko'rganlari yo'q" [Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf, 2023: 642].

Na'tning keyingi baytida payg'ambarning Haq farmonidan chetga chiqmaganligi evaziga erishilgan ulug' natijasiga e'tibor qaratilgan:

Anga bu surma bo'lg'och qurratul-ayn,
Nasib o'ldi maqomi **«qoba qavsayn»**.

Bu surma uning uchun ko'zining oq-u qorasi bo'lib, shu tufayli unga **«qoba qavsayn»** (ikki yoy, ya'ni ikki qosh orasidek yaqin, hatto undan ham yaqin oraliqdagi, juda kichik bir masofa degan ma'noni anglatib, hazrat payg'ambarimizning me'roj kechasi Allohga juda ham yaqinlashganini anglatuvchi ifoda. [Suleyman Uludag, 1995: 290]) lik martabasi nasib bo'ldi. Ushbu baytning manbasi Najm surasining 9-oyatidir: "Bas, **ikki kamon miqdoriday** joyda bo'ldi. Balki undan ham yaqinroq keldi" [Abdulaziz Mansur, 2001: 364].

O'zin Kim aylabon, lekin topib Haq,
Ko'runmay kimsa Haqdin ayru mutlaq.
Yuqorroq ko'rguzub chun raxshi novard,
Chiqorib lomakon maydonidin gard [Alisher Navoiy, 1991: 23].

Shoir payg'ambarimizni "Haqni topdi. Haqqa erishdi, ya'ni "ko'runmay kimsa Haqdin ayru mutlaq", tarzida ifodalaydi. "Imom Ahmad Imom Mas'uddan qilingan rivoyatda: Isro kechasi Payg'ambar alayhissalom tugash daraxtiga borib yetdilar, u yettinchi osmonda edi. Yerdan chiqqan narsalar ham, yuqoridan tushgan narsalar ham unga yetib to'xtaydi" [Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf, 2006: 194] deyiladi. Abu Zarr (r.a.)dan rivoyat qilingan hadisda esa Muhammad (s.a.v.)dan Me'roj kechasida "Robbingizni ko'rdingizmi?", deb so'rashganida "U Zotni qanday ko'ray? Ko'rganim nur edi" [Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf, 2006: 169], deganlar. "Hayrat ul-abror"dagi me'rojnoma aytilganidek, lomakon olamini payg'ambar bir o'zi, yo'ldoshsiz kezib chiqadi. U yerda lomakon sayri ancha batafsil berilgan, ya'ni lomakon olamining tugash daraxti - Raf-raf maqomi hamda Buroq va Jabrayil (a.s) unga safardoshlik qilolmasliklari tasvirlangan. Ta'kidlash muhimki, "Isro hodisasi tush emas, ruhiy safar ham emas, balki Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning ham

jasadlari, ham ruhlari bilan qilgan safarlaridir... Qur'oni karimda Isro mo'jizasi Muhammad sollallohu alayhi va sallam uchun ilohiy hurmat, ulug' martaba ekanligi aytiladi, Alloh taoloning qudratiga dalil ekanligi tushuntiriladi. Shuning uchun ham, agar tush yoki ruhiy safar bo'ladigan bo'lsa, bu voqeaning mo'jizaligi qolmas edi [Алимов У, 2016: 319].

Alisher Navoiy na'tning so'nggi baytlarida Allohga munajat qilib payg'ambarimizning ulug' maqomlari haqqi hurmati butun ummatlarning gunohlari afv etilishi masalasiga e'tibor qaratadi:

Ilohiy, bu nubuvvat toji haqqi,
Aning bu sur'ati me'roji haqqi,
Kim andoqkim tilab ummat gunohin,
Sen etting afv alar fe'li tabohin.

Ilohiy (Alloh), bu nubuvvat (payg'ambarlik) toji haqqi, bu sur'ati me'roj (me'roj tezligi) haqqi qasam bo'lsin. U kimdurki, (payg'ambarimiz nazarda tutilmoqda) ummatlar (bir payg'ambarga ergashuvchi kishilar)ning gunohlarini tilaganida, Sen (Alloh) ularning fe'li tabohin (buzuq fe'llarini) afv etting. Me'roj tuni payg'ambarimizga berilgan eng katta maqomlardan biri – shafolat – Maqomi Mahmud bo'lib, avvalgilar-u oxirgilar maqtaydigan Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning “ulkan shafolat”idir. Alloh taolo o'z habibiga ushbu maqomni berib, boshqa payg'ambarlardan ustun qildi va: “Shoyadki, Robbing seni maqtovli maqomda tiriltirsa” [Шайх Мухаммад Содиқ Мухаммад Юсуф, 2011: 290], – deb Al-Isro surasi 79-oyatida marhamat qildi. Imom Ahmad va Imom Bayhaqiy Abu Hurayra roziyallohu anhudan keltirgan rivoyatda Rasululloh alayhissalomdan “Shoyadki, Robbing seni maqtovli maqomda tiriltirsa” oyati haqida so'rashdi. U zot: “U – shafolatdir”, – dedilar [Shayx Mahmud As'ad Jo'shon, 2007: 19].

“Farhod va Shirin” dostoni tarkibidagi na't boblari o'z ichiga ikki turga bo'linadi: vasf va me'roj na'tlari. Vasf na'tda Muhammad (s.a.v)ning barcha payg'ambarlardan ustun jihatlari, Allohning habibi ekanliklari qalamga olinadi. Me'roj na'tda esa payg'ambarning eng yuksak maqomi me'roj ekanligi bunda insoniyat uchun manfaatli jihatlari: ikki dunyo saodati, shafolatdan umidvorlik berilganligi badiiy talqin etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy MAT 20 jildlik. 8-jild “Farhod va Shirin”. – T: Fan, 1991. B-13.
2. Abdulhamid Qurbobov. “Xamsa sarlavhalari badiiyat” – T.:2016 B-122.
3. А. Қаямов «Хамса» сарлавҳалари. Асарлар. 3-жилд. – Тошкент: MUMTOZ SO'Z, 2009. – Б. 56.
4. Алимов У. Тафсири ирфон. Қуръони карим маъноларининг таржима ва тафсири. 13-16 жузлар. –Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2016. – Б. 319.
5. Исмоилов И. Алишер Навоий “Садди Искандарий” дostonи қиёсий таҳлили. PhD диссертацияси. –Тошкент, 2019. Б-44.
6. Muhammad at-Termiziy “Shamoyili Muhammadiy”. 2007. 6-bet.
7. Qur'oni karim ma'nolarining tarjimasi / Tarjima va izohlar muallifi Abdulaziz Mansur. - T.: Toshkent islom universiteti nashriyoti, 2001. B-453.
8. Қуръони карим ва ўзбек тилидаги маънолар таржимаси. Шайх Мухаммад Содиқ Мухаммад Юсуф. –Тошкент: “Sharq”, 2011. – Б. 290.
9. Соғуний Алихонтўра. Тарихи Мухаммадий. – Тошкент: Мовароуннахр, 1997. – 600 бет.
10. Suleyman Uludag. Tasavvuf terimleri sozlugu. – Istanbul, 1995. – S.290.
11. Shayx Mahmud As'ad Jo'shon. “Haqiqiy sevgi” Hoji Sayfiddin Sayfulloh tarjimasi. 2007. B-4.

12. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf "Tafsiri hilol" 5-jild. –T: "Hilol nashr". 2023. 642-b.
13. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Nubuvvat va risolat kitobi. - T.: Movarounnahr, 2006. B-194.
14. <https://siyrat.uz/maqola/10415>

BADIIY MATN VA TASVIRIY VOSITALAR MUTANOSIBLIGI

Qurbonov Abdulhamid Abduqayumovich,
University of Business and Science dotsenti, RhD,
e-mail: akurbanov-57@mail.ru
10.52773/tsuull.conf.navoiy.2025/OXYQ6909

Annotatsiya: Maqolada Navoiy asarlarini o'qish va nashr etish chog'ida yo'l qo'yilgan ayrim xatolar haqida fikr yuritilgan. Shoir asarlarida, bir tarafdin, xilma-xil tasviriy vositalar, ikkinchi tarafdin esa, g'oyaviy mazmun va muayyan istilohiy iboralar o'rtasida mustahkam va barqaror aloqadorlik mavjud bo'lib. Masalaga shu nuqtayi nazardan yondashganda xatoliklar, ayniqsa, ko'zga yaqqolroq tashlanadi. Ayrim bayt va misralarning mazmunini to'g'rilashda bu jihatlar hisobga olingan.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, bayt, tasviriy vositalar, tanosub, badiiy mantiq, badiiy timsol.

BALANCE OF ARTISTIC TEXT AND ILLUSTRATIVE MEANS

Abstract. This article examines the errors encountered in the reading and publication of Alisher Navoi's works. It highlights the strong and consistent connections within his works, particularly between the various visual elements and the ideological content, as well as their relationship to specific idiomatic expressions. When analyzed from this perspective, the mistakes in interpretation become particularly evident. The article further addresses the corrections made to the content of certain verses, taking into account these critical aspects to ensure a more accurate representation of the poet's intended meaning.

Keywords: Alisher Navoi, verse, visual means, proportion, artistic logic, artistic symbol.

Mukammal matn yaratish behad mashaqqatli ish ekanligi ma'lum. Uni tom ma'noda igna bilan quduq qazishga o'xshatish mumkin: tadqiqotchi muayyan asarning har bayti va har satrini, har bir so'z va hatto har bir harfini sinchiklab o'rganishi, ularni turli nusxalar bilan qiyoslashi, bir emas, o'nlab variantlar ichidan eng ishonchlisini tanlab olishi zarur. Bu, albatta o'z-o'zidan yuzaga chiqmaydi. Buning uchun arab, fors va eski o'zbek tillari, arab yozuvi va uning turlarini chuqur bilish, adabiyot, tarix fanlarini puxta o'zlashtirish, kitobchilik usul va qoidalaridan yaxshi xabardor bo'lish lozim. Alisher Navoiy "Xazoyin ul-maoniy" devonining H.Sulaymon va "Xamsa" dostonlarining P.Shamsiyev tomonidan yaratilgan tanqidiy matni ana shunday og'ir mehnat, chuqur bilim va sinchkovlik samarasidir. Shoir lirik va epik merosini o'z ichiga olgan bu muhtasham obidalar tanqidiy matn asosida 1959, 1960-yillarda alohida kitoblar holida chop etilib, jamoatchilik hukmiga havola qilindi. "Xazoyin ul-maoniy" keyinchalik F.Sulaymonova, "Xamsa" dostonlari esa A.Hayitmetov, S.G'aniyeva, I.Haqqul va boshqalar tomonidan qayta tayyorlanib, 1987-2003 yillarda izohlar bilan chop etilgan "Mukammal asarlar to'plami" (MAT) ga kiritildi. Keyingi yillarda ham bu

MUNDARIJA CONTENTS	
Shuhrat SIROJIDDINOV. Turkiy dunyo hamkorligining mustahkam asosi Туркі әлем ынтымақтастығының мықты негізі	7
Қанат БАЙБОЛОВ. Екі халық арасындағы бауырлық пен достық рәмізі Ikki xalq qardoshligi va do'stligi simvoli	11
I SHO'BA. ALISHER NAVOIY ADABIY MEROSINING JAHON TAMADDUNIDA TUTGAN O'RNI SECTION I. THE PLACE OF ALISHER NAVAII'S LITERARY HERITAGE IN WORLD CIVILIZATION	
Boqijon TO'XLIYEV. Nasimiy va Navoiy nazmi – badiiy tafakkurning yangi bazmi	15
Islam JEMENEY. Әлішер Навои	23
Yashar QOSIM. Dohiy Alisher Navoiyning ulug' izdoshi (Muhammad Fuzuliy sheiriyatida poetik in'ikos tarzining o'ziga xosligi)	35
Qodirjon ERGASHEV. Renessans adabiyotida etologik janr taraqqiyoti	42
Əlimuxtar MUXTAROV. Nizami Gencevi ve Alişir Navai'nin tür ruhu eserlerinin ve araştırmacılarının gözü ile	47
Roviyajon ABDULLAYEVA. Alisher Navoiy fenomeni yoxud Navoiy ijodining olamshumul ahamiyati	52
Насриддин НАЗАРОВ. Гуманизм и креативность в творчестве Наваи как фактор обеспечения связей между народами Евразии	60
Burobiya RAJABOVA. O'zbek navoiyshunoslari Jomiy haqida	67
Karomat MULLAXO'JAYEVA. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy g'azallarida Yusuf (a. s.) siymosining badiiy talqinlari	77
Tozagul MATYOQUBOVA. Sharq adabiyotining yetuk tadqiqotchisi	82
Nosir JO'RABOYEV. Ikki turkman hukmdori ijodi va Alisher Navoiy	87
Молдасанов Е.М., АБДУВАЛИТОВ Н.Б. Әлем әдебиетінің асқар шыңы (Әлішер Науаидың 584 жылдығына орай)	95
Hulkar HAMROYEVA. Alisher Navoiy ijodida san'at talqini	99
Злиха ЖАНТАСОВА. Шығыс әдебиетінің қазақ фольклорындағы көрінісі	103
Sherxon QORAYEV. Alisher Navoiy Badaxshon shohi va shoir Sulton Muhammad La'liy ijodi tadqiqotchisi (Navoiy va uning zamondoshlari tazkiralari ma'lumotlari asosida)	109
Ahmad AKHLAQUE, Asror Allayarov. Alisher Navoi's creative works: a scientific exploration	115

Fayzulla ISKANDAROV, Dostonjon Tojiev. “Alisher Navoi international award”: establishment and historical significance for the turkic world	118
Diyora ABDUJALILOVA. Alisher Navoiy va Yahyobey Toshlijali dostonlarida shayx va avliyolar timsoli	124
Orifjon OLIMJANOV. Alisher Navoiy va Lorendeli Hamdiy “Layli va Majnun” dostonlari kompozitsiyasiga doir	131
II SHO‘BA. NAVOIY NAZMIY, NASRIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI SECTION II. ISSUES OF STUDYING NAVAIY'S POETRY, PROSE AND SCIENTIFIC HERITAGE	
Nurboy JABBOROV. Alisher Navoiy “Tarixi anbiyo va hukamo” asarining siyarnoma turkumida tutgan o‘rni	136
Nusratullo JUMAXO‘JA. Navoiyning yigitlik lirikasiga mansub mustazodi	149
Maqsud ASADOV. Alisher Navoiy “Tanbeh”larining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari (“Mahbub ul-qulub” asari misolida)	155
Dr. Kemal Yavuz ATAMAN. Ali Şir Nevaî beyitlerinde kulluk şuuru	160
Zuhridin ISOMIDDINOV. Navoiyning “qaychi” g‘azali	165
Baxtiyor FAYZULLOYEV. Qo‘qon adabiy muhitida Navoiyga izdoshlik	170
Iqboloy ADIZOVA. Adabiy ta’sir va poetik tafakkurning yangilanishi	177
Nafas SHODMONOV, G‘iyosiddin SHODMONOV. Olti dostonida Odam Ato timsoli talqini	185
Faridaxon KARIMOVA. Xorazm adabiy muhitida debochanavislik an’analari	193
Islomjon YAQUBOV. O‘zaro ta’sir, ijodiy mushtaraklik va o‘ziga xoslik	200
Shavkat HAYITOV, Gulshod SHOYIMOVA. Alisher Navoiyning nabotot va hayvonot olamiga munosabati	205
Obidjon KARIMOV. Alisher Navoiy irfoniy olamining yangicha talqini	212
Gulbahor ASHUROVA. O‘zbek ayol shoiralari ijodida Alisher Navoiy obrazi tasvirlari	216
Qo‘ldosh PARDAYEV. Navoiy g‘azallariga Muqimiyning nazira va taxmislari	221
Ilyos ISMOILOV. Abror hayrati	226
Shermuhammad AMONOV, Abdulhaq RAHIMI. Alisher Navoiy mustazodiga bog‘langan muxammas haqida	229
Zilola AMONOVA, Shahlola SAFAROVA. “Farhod va Shirin” dostonidagi na’t boblarning manbalari va badiiyati	235
Abdulhamid QURBONOV. Badiiy matn va tasviriy vositalar mutanosibligi	242
Muqaddas TOJIBOYEVA. Abdulla Qodiriy romanlarida Alisher Navoiyga izdoshlik masalalari xususida	248
Orzigul HAMROYEVA. Radifning bayt kompozitsiyasidagi o‘rni	252

Ma'rifat RAJABOVA. Xalq maydon kulgi san'ati belgilarining Navoiy ijodidagi ko'rinishlari	256
Nodira SOATOVA. "Farhod va Shirin" dostoni – an'ana takomili, taraqqiysi hamda sintezi sifatida	260
Umida RASULOVA. "Alisher Navoiy" romanida obraz poetikasi	266
Marg'uba ABDULLAYEVA. Yetti sayyora: badiiy talqin va ilmiy dunyoqarash	269
Sohiba UMAROVA. Suyuma G'aniyeva – navoiyshunos	273
Zuhra MAMADALIYEVA. Alisher Navoiy "Xamsa"sida mirrix obrazining majoziylik xususiyatlari	277
Aziz RAJABIY. Alisher Navoiy g'azallarining ohang jilolari (Yunus Rajabiy musiqiy merosi misolida)	282
Zarif QUVONOV. "Hayrat ul-abror"ning yangi tadqiqatlari xususida	286
Farruxbek ABDALIYEV, Gulnoza OSMANOVA. "Xamsa"da "kampir" obrazi talqini	290
Nafisa RAXMANOVA. Ramziy-majoziy obrazlar ta'vili haqida mulohazalar	293
Kamola ULUG'MURODOVA. Navoiy nazmida Layli obrazining badiiy talqini	299
Mavluda ORTIQOVA. Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asarida valiylarga xos sifatlar talqini	303
Jamila EISAR. Alisher Navoiyning she'riyatida oyina timsolining talqini ("G'aroyib us-sig'ar misolida")	308
Azizbek TOSHPO'LATOV. Alisher Navoiyga izdoshlik: Ahmad Tabibiy taxmislari	313
Sevara PARMONOVA. Tasavvufiy tazkiralari va Alisher Navoiy asarlarida Ibrohim Adham nomining zikr etilishi	318
III SHO'BA. ALISHER NAVOIY ASARLARINING MANBALARI VA MATNIY TADQIQI SECTION III. SOURCES AND TEXTUAL RESEARCH OF ALISHER NAVAI'S WORKS	
Dilnavoz YUSUPOVA, Umedullo MAHMUDOV. Alisher Navoiyning "Munshaoti Abdulloh Marvorid"dan o'rin olgan forsiy maktublari xususida	323
Manzar ABDULXAYROV. Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni tabdillari tahlili	330
Dr. Farhad RAHIMI. Senglah Sözlüğünün Feraği Düzeltmeleri ve Feraği'den Yanlış ktarmaları Üzerine	335
Gholamreza RAZMI. Özbekistan'da yayimlanmış iki Hayretü'l-ebrar'in tashih edilmiş metnindeki hatalarin sebeplerine bir bakiş	352
Altay NOORULLAH. Navoiy asarlarida tinish belgilarining yanglish ishlatilishi	365

Sevda BEHESHTI. Navai's Poetry as Reflected in Miniature Paintings (A study of Illustrated manuscripts preserved in Iranian collections)	376
Oysara MADALIYEVA. Alisher Navoiyning dastlabki ikki devoni Hamid Sulaymon nigohida	384
Dr. Siyamek HÜSSEYINALIZADE (Ergin Avşar). Amîr Alî Şîr Nevaî'nin şiirlerinde Şamanlığa aid Terimler ve ritüeller	395
Ozoda TOJIBOYEVA. Parij kulliyotidagi "Favoyid ul-kibar"ning matniy xususiyatlari	407
Husnigul JO'RAYEVA. Husayn Boyqaro – Husayniy adabiy merosining O'zbekistonda o'rganilishi	412
Dilnoza RUSTAMOVA. Alisher Navoiy toshbosma devonlaridagi ayrim g'azallar matnining qo'lyozma nusxalar bilan qiyosi	417
Erfan ESHGHÎNOUR. Fâni Divanındaki Avnî Divanından Tercüme Olunmuş Şiirler Üzerine	423
Lochinbek AHMADALIYEV. Po'latjon Qayyumiy tazkiralarda Alisher Navoiy faoliyatining yoritilishi	433
Dilnavoz SATTOROVA. Navoiy g'azallariga Sa'diy taxmislari	438
IV SHO'BA. ALISHER NAVOIY ASARLARINING XORIJIY TILLARGA TARJIMASI VA CHET ELLARDA O'RGANILISHI SECTION IV. TRANSLATION OF ALISHER NAVA'I'S WORKS INTO FOREIGN LANGUAGES AND STUDY ABROAD	
Hulkar HAMROYEVA, Shahlo NARALIYEVA, Ozodaxon MUSAYEVA. Qozog'istonda Mir Alisher Navoiy ijodining o'rganilishi	444
Abdulhay SOBIROV, Zamira DJURABAYEVA. "Muhokamat ul- lug'atayn" – turkiy xalqlar leksikasining so'nmas bulog'i	451
Münevver TEKCAN, Serpil Yazıcı ŞAHİN. Muhakamat al-lughatayn's literary and academic aspects.	455
Бермет ЗАКИРОВА, Дамилова НУРИЙЛА. Алишер Навоинин чыгармаларындагы тилдик каражаттар аркылуу студенттин кеп маданиятын өстүрүү	462
Nishonboy XUSANOV. "Hayrat ul-abror"dagi teonimlarning semantik va badiiy xususiyatlari	468
Mardon RAHMATOV. Qo'shma fe'l komponentlari inversiyasi	472
Rashid ZOHID. Hayot – firoq manzili	478
Shahlo HOJIYEVA. Alisher Navoiy badiiy kashfiyotlari – Cho'lpon estetik tafakkuri yangilanishi omili	482
Mo'minjon SULAYMONOV. Alisher Navoiy davrida isiriq solinganmi?	488
Abdumurod TILAVOV. Alisher Navoiy ma'naviy merosi va zamonaviy ta'lim	492
Nilufar RASULOVA. Alisher Navoiyning boqiy merosi jahon tillarida	497
Ozodaxon MUSAYEVA, Gulchehra SULTONOVA. "Muhokamat ul- lug'atayn" asaridagi turkiy fe'llar va omonim so'zlar tahlili	502

Iroda ISHONXANOVA. Alisher Navoiy hayoti va ijodining “Литература” darsliklarida aks etishi	505
Shahlo NARALIYEVA, Farrux ABDALIYEV. Hazrat Navoiy ijodida nutq madaniyati	514
АШИРОВА Т.К., КАРАЕВА Н.О., ЗАКИРОВА Б.А. Алишер Навоинин чыгармаларын санарип платформалар аркылуу жайылтуу	518
Dilorom YULDASHEVA, Shahlo NARALIYEVA. Alisher Navoiyning didaktik qarashlari	523
Komiljon ABDULLAYEV. Ta’lim tizimi bosqichlarida Alisher Navoiy hayoti va ijodini o’rgatishda fanlararo integratsiyadan foydalanish	527
Gulnoza YULDASHEVA, Sevinch UBAYDULLAYEVA. “Lison ut-tayr” dostonining ayrim morfemik xususiyatlari tahlili	531
Feruza DJUMANIYAZOVA. Alisher Navoiy ijodida milliy etnosport o’yinlari	534
Hamida JURAQOBILOVA. O’zbek she’riy matnlaridagi kognitiv metaforalarning fransuz tilida ifodalanishi	539
Abdug’ani NASRIDDINOV. Navoiyshunoslikda yangicha yondashuv	544
TEZISLAR ADABIYOTSHUNOSLIK	
AHMADOVA Shohsanam. Hofiz Xorazmiy va Alisher Navoiy ijodida zohid obrazi tasviri	550
ABDURAIMOVA Xafiza. Alisher Navoiy g’azaliyotida Doro obrazi talqinlari	553
ALIYEVA Sevinch. Anbiyolar haqidagi manbalarda Iso payg’ambar obrazi tasviri	556
ALMARDONOVA Aziza. Alisher Navoiy tarji’bandlarida dunyo ramzi	561
DEHQONOV Akramjon. Bir g’azal sharhi	564
DOLIMOV Shokir. «Hayrat ul-abror» dostoni sharhining rus tiliga tarjimasi xususida	567
GAFUROVA Shaxnoza. Navoiy me’rojnoma baytlarida qo’llangan badiiy san’atlar	569
IBOTOVA Madina. Alisher Navoiy g’azallarida jon va ishq munosabatining badiiy ifodasi	572
MEYLIYEV Xudoyberdi. Navoiy va zamondoshlari asarlarida Mirzo Mironshoh saroyi adabiy muhiti va shoir Lutfulloh Nishopuriy ijodiy faoliyatining yoritilishi	576
MUQUMOVA Surayyo. “Nasoyim ul-muhabbat”: ism, xosiyat va xususiyat	579
NASRULLAYEV Elmurod, SIROJIDDINOVA Sevinch. Xalq og’zaki ijodida Navoiy timsoli talqini	581

NURULLAYEVA Hulkaroy, MAMADALIYEVA Madina. Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarini o’qitish bo’yicha ayrim mulohazalar	584
OLIMJONOV Davronbek. “Boburnoma” asarida tarixiy shaxslar tavsifi (Alisher Navoiy shaxsi misolida)	587
PARDAYEVA Nigora, PIRNAZAROVA Barno. Navoiy lirikasida kichik lirik janrlar	589
SHOMURODOV San’at. Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlari isajon sulton talqinida	593
TO’XTAMURATOV Furqat. Alisher Navoiy g’azaliga Muhsiniy tatabbu’si	596
TURDIYEVA Maftuna. “Layli va Majnun” dostonlari kompozitsiyasidagi ba’zi farqli jihatlar	599
UMAROVA Dildor. Alisher Navoiy asarlarida sukut go’zalligi ifodasi	602
UMAROV Sardorbek. Ma’rifatning haqiqati – hayratdir	604
YANGIBOYEV Shavkat. Ito haqida	607
TILSHUNOSLIK	
YULDASHEVA Dilorom. Alisher Navoiy asarlarida rang-tus ifodalovchi birliklar	611
AXMADJANOVA Malika. Alisher Navoiy va o’zbek tilining boyitilishi: ilmiy metodlar va uslublar	613
AKBAROVA Zulfizargul. Alisher Navoiy asarlarida qo’llanilgan antonimlik hosil qiluvchi “Ahl” komponentli lug’aviy birliklar tahlili	617
YUSUPOVA Dildora. Alisher Navoiy asarlarida qimmatbaho tosh nomlari	619
MUNDARIJA	622